



**Adliya vazirligi**

(ro'yxatdan o'tkazuvchi organning nomi)

**Nodavlat notijorat tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida**

**GUVOHNOMA**

743P -son 2025 yil « 29 » Sentyabr

Nodavlat notijorat tashkilot nomi: O'ZBEKISTON TADBIRKORLIK, BIZNES VA XIZMAT KO'RSATISH SOHALARI XODIMLARI KASABA UYUSHMASINI

Faoliyat hududi: Respublika NNT  
(NNT faoliyati tatbiq etiladigan hudud (viloyat, tuman, shahar, shaharcha va ovul))

Tashkiliy-huquqiy shakli : 210-Jamoat birlashmasi  
(NNTning jamoat birlashmasi, jamoat fondi, muassasasi, assotsiatsiyasi (uyushmasi) va birlashmasi)

KTUT: 23989211

STIR: 201685867

Faoliyatining asosiy maqsadlari: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining inson, uning huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlari, sha'ni va qadr-qimmatini eng yuksak qadriyat sifatida tan olingan, jamiyat va davlat hayotining barcha jabhalarida har bir insonni farovon va munosib hayot kechirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan, ijtimoiy adolat va qonun ustuvorligi mezonlarini ta'minlangan insonparvar demokratik huquqiy davlatni barpo etish borasidagi qoidalarni hayotga tatbiq etishga ko'maklashish va boshqalar.

Qo'shimcha ma'lumotlar Tashkilot 2025-yil 29-sentyabrda 743p-son bilan qayta ro'yxatdan o'tkazilgan.

Vazir o'rinbosari



IKRAMOV MUZRAF



## I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. O'zbekiston Tadbirkorlik, biznes va xizmat ko'rsatish sohalari xodimlari kasaba uyushmasi (bundan buyon matnda "kasaba uyushmasi" deb yuritiladi) mulkchilik shaklidan qat'i nazar, tadbirkorlar, biznes, kommunal-maishiy xizmat ko'rsatish sohalari, mebel, ipakchilik, charm-poyabzal sanoati va yengil sanoat, klaster tashkilotlari, umumiy ovqatlanish, qo'shma va chet el korxonalari, bozorlar uyushmasi, savdo, sug'urta, hunarmandlar, mazkur sohalar oliy o'quv yurtlari xodimlari, o'n besh yoshga to'lgan shaxslarni, shuningdek, qisman band va vaqtincha ishsiz bo'lgan fuqarolar hamda pensionerlarni, kasbi, lavozimi, irqi, millati, jinsi, yoshi, diniy e'tiqodi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, ixtiyoriylik asosida birlashtiradigan o'zini o'zi boshqaruvchi nodavlat notijorat tashkilot bo'lib, uning tashkiliy-huquqiy shakli jamoat birlashmasi hisoblanadi.

1.2. Kasaba uyushmasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsip va normalari, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Mehnat kodeksi, Fuqarolik kodeksi, Tadbirkorlik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi, "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunlari hamda boshqa qonun hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro konvensiyalar, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, o'zi a'zo bo'lgan kasaba uyushmalari birlashmalari Ustavi, shuningdek, mazkur Ustavga amal qiladi.

Ushbu Ustav kasaba uyushmasining barcha a'zolari va xududiy bo'linmalari hamda tashkilotlari uchun majburiydir.

1.3. Kasaba uyushmasi o'z faoliyatida, jumladan moliyaviy faoliyatida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan mustaqildir, bunda, qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno. Ular oldida hisobdor emas, ular tomonidan nazorat qilinmaydi.

Kasaba uyushmasi o'z tuzilmasini mustaqil ravishda belgilaydi.

1.4. Kasaba uyushmasi yuridik shaxs hisoblanadi. Davlat nomidan bitimlar, shartnomalar tuzishi, shuningdek, sudda da'vogar yoki javobgar bo'lishi mumkin.

Kasaba uyushmasi mustaqil ravishda o'z tarkibi, tuzilmasi, xududiy bo'linmalari hamda organlarini shakllantiradi va ularning vakolatlarini belgilaydi.

Kasaba uyushmasi boshqa davlatlar kasaba uyushmalari bilan hamkorlik qiladi, shuningdek, xalqaro kasaba uyushmalari va birlashmalariga belgilangan tartibda a'zo bo'lishi mumkin.

1.5. Mazkur Ustav qoidalari talqinini berish kasaba uyushmasi Respublika Kengashi, uning majlislari oraliq'ida esa Ijroiya qo'mitasining huquqi hisoblanadi.

1.6. Kasaba uyushmasining rasmiy nomi:

o'zbek tilida kirill yozuvida to'liq — Ўзбекистон Тадбиркорлик, бизнес ва хизмат кўрсатиш соҳалари ходимлари касабa уюшмаси;

o'zbek tilida lotin yozuvida to'liq — O'zbekiston Tadbirkorlik, biznes va xizmat ko'rsatish sohalari xodimlari kasaba uyushmasi;

rus tilida to'liq — Профессиональный союз работников предпринимательства, бизнеса и сфер обслуживания Узбекистана;

ingliz tilida to'liq — Trade union of workers of entrepreneurship, business and service in Uzbekistan.

1.7. Kasaba uyushmasi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi xududida amalga oshiradi.

Doimiy asosda faoliyat yuritadigan kasaba uyushmasining rahbar organi joylashgan manzil:

O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Buxoro ko'chasi, 24 uy. Indeks 100029.

## II. KASABA UYUSHMASINING ASOSIY MAQSADI VA VAZIFALARI

2.1. Kasaba uyushmasining asosiy maqsadi va faoliyat yo'nalishlari:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining inson, uning huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini, sha'ni va qadr-qimmatini eng yuksak qadriyat sifatida tan olingan, jamiyat va davlat hayotining barcha jabhalarida har bir insonni farovon va munosib hayot uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan, ijtimoiy adolat va qonun ustuvorligi mezonlarini ta'minlangan insonparvar demokratik huquqiy davlatni barpo etish borasidagi qoidalarni hayotga tatbiq etishga ko'maklashish;

Jamiyat — islohotlar tashabbuskori degan ezgu g'oyalar, tripartizm va ijtimoiy sherikchilik tamoyillarini hayotga tatbiq etish;

xalqaro kasaba uyushmalari harakatining dunyoda mehnat sohasidagi tub o'zgarishlarni inobatga olib, tripartizm hamda ijtimoiy muloqot va ijtimoiy sherikchilik tamoyillari asosida kelajakdagi mehnat sohalarini yanada mehnatkash insonga yo'naltirilganligini ta'minlash borasidagi faoliyatida faol ishtirok etish. Sohada ishlab chiqarish jarayonining barcha ishtirokchilari — ishchi-xizmatchilar, klaster tashkilotlari, biznes-tadbirkorlik sub'ektlari hamda davlat manfaatlarini uyg'unlashtirish maqsadida ijtimoiy muloqot, ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish, davlat-xususiy sherikchilik tamoyilini hayotga izchil tatbiq etish va kuchli jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

munosib mehnat — inson farovonligi va barqaror rivojlanishning asosida muhim sharti ekanligini nazarda tutib, hamma uchun sifatli, munosib mehnat joylarini tashkil etish va adolatli ish haqi bilan ta'minlash, insonning erkin rivojlanishi uchun zarur sharoitlar yaratilishiga erishish;

munosib ish sharoitlarini yaratish, bu borada xalqaro mehnat tashkilotining "Mehnat xavfsizligi, gigiyenasi va mehnat muhiti haqida", "Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida inson sog'lig'ini saqlash va xavfsizligini ta'minlash haqida" hamda "Mehnat xavfsizligi va gigiyenasiga ko'maklashuvchi asoslar to'g'risida"gi konvensiyalarini milliy qonunchilikka va amaliyotga implementatsiya qilish, mehnatni tashkil etishni xalqaro Mehnat Tashkiloti va Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining tegishli talablari va standartlari asosida tashkil etishga ko'maklashish. Malaka darajasiga qo'yiladigan talablarga muvofiq kadrlarni tanlash va joylashtirish, mehnatni me'yorlash, ish vaqtidan, xodimning aqliy va jismoniy kuchidan samarali foydalanish, xodimlarni sog'lig'ini saqlash, tiklash va sog'lom



turmush tarzi kechirishi, malakasini va salohiyatini doimiy oshirib borishini rag'batlantirish va boshqalar — tatbiq etilishini ta'minlash;

munosib ish haqi, munosib va farovon hayot asosi — tamoyilidan kelib chiqib, aholining daromadi bo'yicha keskin tabaqalanishining oldini olish, mehnatga haq to'lash bilan fuqarolarning yashash minimumi xarajatlari o'rtasidagi tafovutlarni keskin qisqartirish, pensiya va eng zarur "yashash minimumi" hamda "iste'mol savati"ning o'zaro mutanosibligiga erishish va minimal ish haqini bozordagi narx-navoga mutanosib ravishda oshirib borish va shu orqali ishchi va xizmatchilarning ish haqlari va daromadlarining doimiy oshib borishi, ijtimoiy munosabatlarda barqarorlik va uyg'unlikni ta'minlashga erishish;

mamlakatda qulay biznes va investitsion muhitni shakllantirish, o'rta va kichik biznes, oilaviy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, Tadbirkorlik — aholi bandligining garovi g'oyasini tatbiq etish orqali yangi ish o'rinlarini tashkil etish, aholi to'liq bandligi va oilalar farovonligini ta'minlashga qaratilgan davlat va xududiy dasturlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishida ishtirok etish, bu borada ta'sirchan jamoatchilik nazoratini o'rnatish;

mamlakatda amalga oshirilayotgan salomatlikni saqlash, kasallikning oldini olish va insonlarning malakali tibbiy xizmat, hozirgi va kelajak avlodlarning toza atrof muhit va munosib ekologik shart-sharoitlarga bo'lgan huquqlarini ro'yobga chiqarish, jamiyatda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish, ishsizlik, qashshoqlik va kambag'allikning oldini olishga qaratilgan davlat siyosatini hayotga izchil tatbiq etish, milliy barqaror taraqqiyot rivojlanishiga erishishni ta'minlashda faol ishtirok etish;

mehnat bozori infratuzilmasining rivojlanishi, mehnat migratsiyasi oqimlarini optimallashtirilishiga, ushbu sohalarda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solish hamda davlat, jamiyat va fuqaro manfaatlariga ijobiy ta'sir qiladigan mehnat migratsiyasi muammolarini hal qilishda faol ishtirok etish;

tadbirkorlik, biznes va xizmat ko'rsatish sohalari xodimlari huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining samarali himoyasini ta'minlash;

xodimlar va ularning oila a'zolarini sog'lomlashtirish hamda munosib hordiq chiqarishlari va dam olishlarini ta'minlash;

mamlakatda olib borilayotgan fuqarolararo va millatlararo tinchlik, hamjihatlik va totuvlikni saqlash va yanada mustahkamlash siyosatini tatbiq etishga ko'maklashish.

## 2.2. Kasaba uyushmasining asosiy vazifalari:

kasaba uyushmasi birdamligini mustahkamlash;

kasbi, lavozimi, irqi, millati, jinsi, yoshi, diniy e'tiqodi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, har bir kasaba uyushmasi a'zosini mehnat qilish va mehnatga munosib haq to'lanishi, ishni va kasbni erkin tanlash va mehnat sharoiti yaratilishi, dam olish, ishsizlikdan himoyalanihiga doir huquqlarini himoya qilish;

ish beruvchilar va ularning birlashmalarida kasaba uyushmasi a'zolarining qonuniy huquq va manfaatlarini ifoda etish;

mehnatga oid barcha masalalarda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish huquqiga ega bo'lib:



-ish beruvchilar va mansabdor shaxslar tomonidan mehnat qonunchiligi, mehnat muhofazasi qoidalari va me'yorlariga rioya qilinishi, shuningdek, xalqaro Mehnat tashkilotining O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan Konvensiyalari tavsiyalari talablariga amal qilinishi, ish o'rinlarini mehnat sharoitlari bo'yicha attestatsiyadan o'tkazilishi, ijtimoiy sug'urta mablag'laridan foydalanish, kasaba uyushmasi a'zolariga mehnat va dam olish sharoitlarining yaratilishi ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish;

davlat bandlik dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish, bandlikni ta'minlash, shu jumladan yangi ish o'rinlarini yaratish va mavjudlarini saqlab qolish, tashkilotlarning faoliyatini yaxshilash, xodimlarning ommaviy ravishda ishdan ozod etilishining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni taklif etish;

ijtimoiy sheriklik tamoyili asosida ish beruvchilar va ularning uyushmalari bilan o'z a'zolari manfaatlariga oid kelishuv, shartnoma va bitimlar tuzish, ularga amaldagi qonun va me'yoriy hujjatlarda belgilanganidan ko'ra ko'proq imtiyoz va kafolatlar kiritilishiga erishish;

jamoat shartnomalari loyihalarini ekspertizadan o'tkazish komissiyalarini tashkil etish, jamoatchilik ekspertizasidan o'tkazish;

tarmoq miqyosidagi o'rtacha ish haqi miqdorini tahlil qilish, vakolatlari doirasida ish haqi o'z vaqtida to'lanishi ustidan jamoatchilik nazoratini olib borish, ommaviy ravishda ishdan ozod etilayotgan xodimlarning mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini himoya qilish;

xodimlarning to'liq bandligini ta'minlash ishlarini, yashirin ishsizlik va norasmiy bandlik hollarini tahlil qilish, tegishli choralar ko'rish, xodimlarning o'z malakasini oshirib borishiga ko'maklashish, kvotalangan ish o'rinlariga fuqarolarni ishga joylashtirish, muassasalardan ommaviy ravishda ishdan ozod etilayotgan xodimlarga moddiy madad choralari qo'llanilishi ustidan jamoatchilik nazoratini olib borish;

korxonalar va tashkilotlarda uzoq yillar mehnat qilib, pensiya yoshiga etgan xodimlarning yubiley va nafaqaga kuzatish tadbirlarini tashkil qilish, pensiyaga chiqqan xodimlar holidan xabar olish;

kam ta'minlangan, ehtiyojmand fuqarolarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash;

mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar hamda kasb kasalliklarini tekshirishda ishtirok etish;

xodimlarning hayoti va sog'lig'iga xavf tug'ilgan hollarda ishlarini to'xtatib turish to'g'risida, shuningdek, mehnatni muhofaza qilish talablarining buzilishlarini bartaraf etish haqida ish beruvchiga takliflar kiritish;

mehnatni muhofaza qilishning holatini o'rganish, ish beruvchilarning jamoa shartnomalari va kelishuvlarida nazarda tutilgan mehnatni muhofaza qilishga doir majburiyatlarining bajarilishini nazorat qilish;

-mehnat huquqiga oid va mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga soluvchi normativ hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etish hamda ularning ijrosi bo'yicha jamoatchilik nazoratini olib borish;



xodimlar va ularning oila a'zolarini sog'lomlashtirishni tashkil qilishga, dam olish, sanatoriy — kurortlarda davolanishning samarali bo'lishiga, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, uning ommaviylikini oshirish, ish vaqtida xodimlar gimnastikasi joriy etilishiga ko'maklashish;

kasaba uyushmasi a'zolari va ularning oila a'zolari o'rtasida mahalliy va xalqaro turizmni rivojlantirish, xodimlarning jamoaviy dam olishini tashkillashtirish, madaniy-ma'naviy, axloqiy-tarixiy, shuningdek, umumbashariy qadriyatlarni targ'ibot-tashviqot qilish;

ko'rik-tanlovlar va turli sport musobaqalarini, ommaviy-madaniy tadbirlarni tashkil etish, g'oliblarni mukofotlash va rag'batlantirish;

atrof-muhitning ekologik muvozanatini saqlash, aholining sog'lig'ini muhofaza qilish va sog'lom turmush tarzini qaror toptirishga ko'maklashish;

korxonalar va tashkilotlarda gender tengligi ta'minlanishiga ko'maklashish, onalik va bolalikni, shuningdek, xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, ularning mamlakat ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida to'laqonli ishtirok etishini ta'minlash, sog'lom oilani shakllantirishga ko'maklashish;

yoshlarga oid davlat siyosatiga ko'maklashish, yosh mutaxassislar, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning o'z ustida doimiy ishlashi, kasbiy mahoratini muntazam ravishda oshirib borishi uchun "Ustoz-shogird" tizimi va boshqa an'analarni yo'lga qo'yish;

mehnatda boshqalarga ibrat ko'rsatgan, faol kasaba uyushmasi a'zolarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirib borish, bu borada ish beruvchilar va ularning uyushmalari bilan hamkorlik qilish;

xalqaro va boshqa mamlakatlarning turdosh kasaba uyushmalari, kasaba uyushmalari birlashmalari bilan a'zolar manfaatini va tajriba almashish yo'lida hamkorlik qilish.

Kasaba uyushmasi o'z maqsadlariga erishish uchun boshqa vazifalarni ham amalga oshirishi mumkin.

### III. KASABA UYUSHMASINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

#### 3.1. Kasaba uyushmasining huquqlari:

o'z a'zolarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ifodalashda himoya qilish;

mehnat huquqlarini himoya qilib sudga da'vo arizasi, shuningdek, sud buyrug'ini chiqarish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilish;

ijtimoiy hayotning turli masalalariga doir tashabbuslar bilan chiqish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga takliflar kiritish;

davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining qarorlarini ishlab chiqishda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ishtirok etish;

ko'rib chiqilishi shart bo'lgan, xodimlar huquq va qonuniy manfaatlariga to'sqinlik qiluvchi yoki ularni cheklovchi, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, bunday hujjatlarni o'z kuchini yo'qotgan deb topish zarurligi to'g'risidagi tavsiyalar va yozma so'rovlarni tegishli organlarga yuborish;



Ustavida belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari, ish beruvchilardan xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlari masalalari yuzasidan bepul axborot olish hamda zarur bo'lgan ma'lumotnoma va boshqa hujjatlarni so'rab olish;

manfaatlari ifoda etilayotgan xodimlarning ish joylariga moneliksiz kirish;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasi, jamoatchilik eshituvi, jamoatchilik monitoringi, jamoatchilik ekspertizasi va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlariga taalluqli bo'lgan hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi inspeksiya tuzish;

xodimlar nomidan jamoa muzokaralarini olib borish, jamoaviy mehnat nizolarini tartibga solishda ishtirok etish, mehnat nizolari bo'yicha komissiyalarning ishida ishtirok etish, ommaviy ravishda ishdan ozod etish oqibatlarini yumshatishga qaratilgan maslahatlashuvlar o'tkazish;

ish beruvchining xodimlarni ommaviy ravishda ishdan ozod etish to'g'risidagi qarorini olti oygacha bo'lgan muddatga to'xtatib turish haqidagi takliflarni mahalliy davlat hokimiyati organlariga ko'rib chiqish uchun kiritish;

O'zbekiston Respublikasi xududidagi kasaba uyushmalari birlashmalari, xalqaro kasaba uyushmalari tashkilotlariga ixtiyoriy ravishda a'zo bo'lish, turdosh xorijiy kasaba uyushmalari bilan hamkorlik qilish, ular bilan xalqaro anglashuv memorandumlari, ahdlashuv bayonnomalari, hamkorlik rejalari tuzish va shu dasturlar doirasida tadbirlar tashkil qilish;

o'z faoliyatiga taalluqli masalalar yuzasidan yig'ilish, konferensiya, simpozium, forum va xalqaro seminarlar o'tkazish hamda zaruratga ko'ra navbatdan tashqari Qurultoy, Respublika Kengashi Majlisi va Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasi yig'ilishini chaqirish;

ish beruvchilar tomonidan xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlariga taalluqli bo'lgan hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ huquqiy hujjatlar, shuningdek, jamoa shartnomalari va kelishuvlari talablariga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

ijtimoiy sheriklik masalalari bo'yicha maslahatlashuvlar va muzokaralar o'tkazish haqida tashabbuslar bilan chiqish, bitim, shartnoma va kelishuvlar tuzish to'g'risida takliflar kiritish, ularning loyihalarini tayyorlash hamda muhokama qilishda ishtirok etish;

jamoa shartnomasi yoki kelishuvida nazarda tutilgan hollarda tegishli kasaba uyushmasi yoki boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotining oldindan roziligini olmasdan turib mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilishga, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, yo'l qo'ymaslik;

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari va normativ-huquqiy hujjat, bitim hamda shartnomalar, shuningdek, boshqa qo'shma hujjatlarning amalga oshirilishi ustidan jamoatchilik nazoratini o'tkazish;

tashkilotlarning rahbarlari hamda boshqa mansabdor shaxslariga xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlariga taalluqli bo'lgan normativ-



huquqiy hujjatlarning hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning aniqlangan buzilishlarini bartaraf etish to'g'risida ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar kiritish, shuningdek, tashkilotlarning rahbarlariga mazkur qoidabuzarliklarda aybdor bo'lgan shaxslarni intizomiy javobgarlikka tortish haqida taqdimnomalar kiritish;

ish beruvchilar, ular birlashmalarining (ittifoqlarining, uyushmalarining) ochiq hay'at majlislarida ishtirok etish;

ommaviy-axborot vositalari, davriy bosma nashrlar, shuningdek, internet veb-saytlar va ijtimoiy tarmoqlarda o'z faoliyati to'g'risida axborot tarqatish;

Ustavga muvofiq ommaviy axborot vositalarini ta'sis etish, belgilangan tartibda noshirlik faoliyatini amalga oshirish, tadbirkorlik tuzilmalari, tijorat tashkilotlari va turli jamg'armalarni tashkil etish;

o'z ramziy belgilarini ta'sis etish;

kasaba uyushmasi esdalik va ko'krak nishoni, Faxriy yorlig'i, Faxriy unvonlarini ta'sis etish;

Kasaba uyushmasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega.

3.2. Kasaba uyushmasining majburiyatlari:

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga rioya etish;

o'z faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash;

o'z mol-mulki va pul mablag'laridan foydalanish to'g'risidagi axborot bilan tanishish erkinligini ta'minlash;

bitimlar va shartnomalar, dasturlar va loyihalar bo'yicha majburiyatlarni bajarish;

kasaba uyushmasini ro'yxatdan o'tkazuvchi organga rejalashtirilayotgan tadbirlar haqida oldindan xabar qilish va uning vakiliga ushbu tadbirlarga erkin kirish imkonini berish;

ro'yxatdan o'tkazuvchi, davlat soliq va statistika organlariga o'z faoliyati to'g'risida belgilangan tartibda hisobotlar taqdim etish;

kasaba uyushmasi tomonidan qabul qilinadigan Ustav va qoida-riyozlarni ommaviy axborot vositalari, Internet jahon axborot tarmog'ida, shu jumladan kasaba uyushmasining rasmiy veb-saytlarida e'lon qilish;

Kasaba uyushmasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega.



#### **IV. KASABA UYUSHMASI A'ZOLARI, ULARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

4.1. Kasaba uyushmasiga a'zolik ixtiyoriy hisoblanadi

Kasaba uyushmasiga a'zo bo'lib kirish istagini bildirgan, ushbu Ustavni tan oluvchi va a'zolik badallarini o'z vaqtida to'lovchi o'n besh yoshga to'lgan, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, tadbirkorlar, biznes, kommunal-maishiy xizmat ko'rsatish sohasi, yengil, mebel, ipakchilik, charm-poyabzal sanoati, umumiy ovqatlanish, qo'shma va chet el korxonalari, bozorlar uyushmalari, savdo, sug'urta, tijorat tashkilotlari xodimlari, chinni, hunarmandlar, yakka tartibda mehnat faoliyati

bilan shug'ullanuvchilar, mazkur sohalar oliy o'quv yurtlari xodimlari, qisman band va vaqtincha ishsiz bo'lgan fuqarolar hamda pensionerlar kasaba uyushmasi a'zosi bo'lishi mumkin.

Kasaba uyushmasi a'zoliciga qabul qilish yakka tartibda, a'zolikka kiruvchi shaxsning arizasiga ko'ra, kasaba uyushmasi va uning bo'linmalari, shu jumladan, boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotining qaroriga asosan amalga oshiriladi. Kasaba uyushmasiga a'zolik bu to'g'risida tegishli qaror qabul qilingan kundan boshlanadi.

Korxonada va tashkilotda boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti bo'lmagan hollarda xodimlarni kasaba uyushmasi a'zoliciga qabul qilish kasaba uyushmasi yuqori tuzilmasi rahbar organi qarori bilan amalga oshiriladi.

Kasaba uyushmasiga a'zolik bu haqda tegishli qaror qabul qilingan kundan hisoblanadi. Kasaba uyushmasiga qabul qilingan shaxsga Federatsiya tizimida tasdiqlangan yagona namunadagi a'zolik bileti beriladi.

Kasaba uyushmasi a'zolidan chiqish ixtiyoriy bo'lib, xodimning shu haqdagi arizasiga asosan boshlang'ich tashkilot qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

4.2. Kasaba uyushmasi a'zolari, qoida tariqasida, asosiy ish joylaridagi boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotida hisobda turadi.

4.3. Kasaba uyushmasiga a'zolik quyidagi hollarda saqlab qolinadi:

tug'ruq va farzand tarbiyalash ta'tilida bo'lganda;

bolani, kasal va nogironlarni parvarish qilish sababli vaqtincha ish faoliyati to'xtatilganda;

salomatligi yomonlashgan yoki yoshi etgani sababli pensiyaga chiqib, mehnat faoliyati to'xtatilganda hamda kasaba uyushmasi tashkiloti bilan aloqani uzilmasdan a'zolik badallari to'lab turilganda;

ish o'rinlari (shtat) sonining qisqarishi, korxonaning yopilishi sababli ishdan ozod qilingan xodimlar — ishga joylashgunlariga qadar;

xodim ish beruvchi tomonidan noqonuniy ravishda ishdan bo'shatilgan hollarda — qayta ishga tiklanguniga qadar;

boshqa uzrli sabablarga ko'ra (tegishli kasaba uyushmasi organining qarori asosida).

xodim u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinganidan so'ng xam arizasiga asosan, a'zolik badallarini to'lab turish sharti bilan kasaba uyushmasi a'zolicini davom ettirishi mumkin. Bunday shaxslarning arizasi boshlang'ich tashkilot organi tomonidan ko'rib chiqiladi va tegishli qaror asosida amalga oshiriladi. Qabul qilingan qaror haqida amaldagi qonunlarda belgilangan muddatlarda yozma javob berilishi shart.

4.5. Kasaba uyushmasi a'zosining huquqlari

Kasaba uyushmasi a'zolari ushbu Ustavda belgilangan huquq va majburiyatlari borasida teng huquqlidir.

Quyidagilar kasaba uyushmasi a'zosining huquqlari hisoblanadi:

o'zining mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini himoya qilinishini so'rab har qanday darajadagi kasaba uyushmasi organlariga murojaat etish va murojaati bo'yicha tegishli javobni talab qilish;

kasaba uyushmasi organlaridan bepul huquqiy yordam olish;



kasaba uyushmasi tashkilotlari, organlari faoliyatida ishtirok etish, qarorlar loyihalarini ishlab chiqish, muhokama qilish va ijrosini ta'minlashda qatnashish;

kasaba uyushmasi faoliyati, shu jumladan moliyaviy faoliyati haqidagi axborot va hisobotlarini eshitish, ma'lumot olish;

kasaba uyushmasi rahbar organlariga saylash va saylanish;

o'zining faoliyati va xulq-atvoriga taalluqli masala ko'rilayotgan yig'ilishlarda, kasaba uyushmasi organlari majlislarida shaxsan ishtirok etish;

kasaba uyushmasining faoliyatini kasaba uyushmasi yig'ilish (konferensiya), Qurultoy, saylanma organlar majlislarida, ommaviy axborot vositalarida erkin muhokama etish va tanqid qilish, ularning faoliyatini takomillashtirish yuzasidan o'z takliflarini kiritish, o'z fikrini ochiq bayon etish va himoya qilish, qarorlar ishlab chiqishda ishtirok etish;

kasaba uyushmasi tomonidan tashkil etiladigan ommaviy, madaniy-ma'rifiy, sport-sog'lomlashtirish va boshqa tadbirlarda, tanlovlarda qatnashish;

kasaba uyushmasi tizimidagi yoki ularga foydalanish uchun berilgan madaniyat muassasalari, sport-sog'lomlashtirish inshootlaridan birinchi navbatda va imtiyozli shartlarda foydalanish;

kasaba uyushmasi rahbar organlari tomonidan belgilangan tartibda ma'naviy va moddiy jihatdan rag'batlantirilish;

sanatoriy, sanatoriy-profilaktoriy, dam olish maskanlari, bolalar dam oldirish va sog'lomlashtirish oromgohlariga belgilangan tartibda imtiyozli yo'llanmalar sotib olish.

#### 4.6. Kasaba uyushmasi a'zosining majburiyatlari:

kasaba uyushmasi Ustaviga rioya qilish, kasaba uyushmasi organlari va tashkilotlarining tegishli qarorlari va topshiriqlarini bajarish;

har oyda belgilangan tartib va miqdorda a'zolik badallarini to'lash;

tarmoq jamoa kelishuvlari hamda jamoa shartnomalarining shartlari bajarilishiga ko'maklashish va qatnashish;

mehnat va kasb intizomini mustahkamlashga munosib hissa qo'shish;

kasaba uyushmasi va kasaba uyushmasi tashkilotining obro'sini mustahkamlashga ko'maklashish, kasaba uyushmasiga zarar etkazadigan harakatlarga yo'l qo'ymaslik;

kasaba uyushmasi va kasaba uyushmasi tashkilotining yig'ilishlarida, agar delegat sifatida saylangan bo'lsa, tegishli kasaba uyushmasi tashkilotining konferensiyasi yoki Qurultoyida shaxsan ishtirok etish;

Kasaba uyushmasi a'zosiga O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlari ham yuklanishi mumkin.

4.7. Ustavdagi majburiyatlarni buzgan kasaba uyushmasi a'zosiga nisbatan quyidagi choralar qo'llaniladi:

saylanma organ tarkibida bo'lsa — organ tarkibidan chaqirib olish;

kasaba uyushmasi a'zolidan chiqarish.

Kasaba uyushmasi a'zosiga choralarni qo'llash masalasi uning ishtirokida, uzrli sabablarsiz kelmagan hollarda esa uning ishtirokisiz, boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti umumiy yig'ilishida yoki kasaba uyushmasi yuqori turuvchi organi yig'ilishida, uni qabul qilingan qarordan xabardor etgan holda, hal qilinadi.

Kasaba uyushmasidan chiqarish haqidagi qaror, kvorum mavjud bo'lgan hamda yig'ilish qatnashchilarining 2/3 qismi yoqlab ovoz bergan taqdirdagina haqiqiy hisoblanadi.

Chora ko'rilgan shaxs chora ko'rilgani to'g'risidagi qaror ustidan mazkur hujjatni olgan kundan e'tiboran 1 oy davomida yuqori kasaba uyushmasi rahbar organiga shikoyat qilishga haqli.

Qo'llanilgan chorani olib tashlash masalasi chora qo'llagan organ tomonidan ko'rib chiqiladi. Kasaba uyushmasi a'zosiga chora qo'llanilgan kundan boshlab, 1 yil o'tgandan so'ng chora qo'llanilmagan hisoblanadi.

Kasaba uyushmasiga a'zolik badallarini ketma-ket olti oydan ortiq vaqt to'lamagan kasaba uyushmasi a'zosi kasaba uyushmasi a'zolidan chiqarilgan deb hisoblanadi (Ustavning 4.3. -bandida ko'zda tutilgan holatlar bundan mustasno).

Kasaba uyushmasi safidan chiqqan (chiqarilgan) shaxs kasaba uyushmasi tomonidan himoyalani, kasaba uyushmasi mulki va vositalaridan foydalanish huquqini yo'qotadi. Kasaba uyushmasi a'zosi kasaba uyushmasiga tegishli bo'lgan mulkda o'z ulushi yoki mulkiy huquqqa, shu jumladan, to'lagan a'zolik badallariga ega bo'lmaydi.

4.8. Kasaba uyushmasi va kasaba uyushmasi tashkilotining faoliyatida faol ishtirok etganligi uchun kasaba uyushmasi a'zosiga quyidagi rag'batlantirish turlari taqdim etilishi mumkin:

tashakkurnoma e'lon qilish;

qimmatbaho va esdalik sovg'alari bilan mukofotlash;

pul mukofoti bilan taqdirlash;

Faxriy yorliq bilan taqdirlash;

Esdalik va ko'krak nishoni bilan taqdirlash va boshqa mukofot turlarini berish.

Rag'batlantirishning turi va tartibi kasaba uyushmasi Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

## V. KASABA UYUSHMASI FAOLIYATINING ASOSIY PRINSIPLARI VA TASHKILY TUZILISHI

5.1. Kasaba uyushmasi faoliyatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat: oshkoralik va ochiqlik.

ixtiyoriylik;

qonuniylik;

kamsitishga yo'l qo'ymaslik;

mustaqillik va o'zini o'zi boshqarish;

teng huquqlilik;

oshkoralik va ochiqlik;

kollegiallik;

kamchilikni ko'pchilikka bo'ysunishligi;

barcha darajadagi kasaba uyushmalari tashkilotlarining rahbar organlari saylash asosida shakllantirilishi.



5.2. Kasaba uyushmasi tuzilmasini quyidagilar tashkil etadi:

boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotlari;

birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitalari (boshlang'ich tashkilotlarda);

kasaba uyushmasi tuman (shahar) bo'linmalari

kasaba uyushmasi xududiy bo'linmalari (birlashgan qo'mitalar, kengashlar);

kasaba uyushmasi Respublika Kengashi;

kasaba uyushmasi Respublika Kengashi apparati.

Kasaba uyushmasi tuzilmasidagi boshlang'ich, birlashgan (boshlang'ich tashkilotlarda), tuman (shahar), viloyat xududiy kasaba uyushmasi tashkilotlari o'z faoliyatlarini O'zbekiston Respublikasi qonunlari, ushbu Ustav, yuqori rahbar organlari qarorlari va kasaba uyushmasi Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadigan tegishli kasaba uyushmasi tashkilotlari to'g'risidagi Nizomlarga muvofiq amalga oshiradi.

Vakolat muddati tugagan boshlang'ich, birlashgan (boshlang'ich tashkilotlarda), tuman (shahar), viloyat kasaba uyushmasi organi ish faoliyatini davom ettirishga haqli emas (bundan saylov kechiktirilgan holatlar mustasno), aks holda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi. (boshqa bo'limga olish)

Kasaba uyushmasi tizimida xotin-qizlar, yoshlar bilan ishlash va boshqa komissiyalar tuzilishi mumkin. Ularning faoliyati kasaba uyushmasi Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasi qarori bilan tasdiqlanadigan tegishli Nizomlar asosida amalga oshiriladi.

## VI. BOSHLANG'ICY KASABA UYUSHMASI TASHKILOTLARI

6.1. Boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotini bir (bir nechta) ish beruvchida yoki tegishli ta'lim muassasasida ishlaydigan kasaba uyushmasi a'zolarining kasaba uyushmasi Ustavi asosida faoliyat ko'rsatadigan ixtiyoriy birlashmadir.

Boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti — kasaba uyushmasining korxonalar, tashkilot va muassasalardagi bo'linmasi hisoblanadi.

Boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotini tuzish kamida 3 nafar kasaba uyushmasi a'zolarining tashabbusi bilan amalga oshiriladi.

Boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti, qoida tartibida ishlab chiqarish yoki kasb-kor tamoyili bo'yicha, biroq mulk shakli va kimga bo'yusinishidan qat'i nazar, tashkilot, korxonalar va muassasalarda tuziladi.

Boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotini tuzish to'g'risidagi qaror kasaba uyushmasi a'zolarining ta'sis (umumiy) yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi va 2 nusxada rasmiylashtiriladi hamda qarorning bir nusxasi shu kunning o'zida tegishli xududiy yuqori kasaba uyushmasi organiga taqdim etiladi.

Boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti mazkur Ustav hamda kasaba uyushmasi Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadigan "O'zbekiston Tadbirkorlik, biznes va xizmat ko'rsatish sohalari xodimlari kasaba uyushmasi tizimidagi boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti to'g'risida"gi Nizom asosida faoliyat yuritadi.



Boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan yoki yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan holda tuzilishi mumkin.

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan va bo'lmagan boshlang'ich, birlashgan tashkilotlarni hisobga olish kasaba uyushmasining tegishli, tuman (shahar) yoki Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar kasaba uyushmasi bo'linmalari (Birlashgan qo'mitalari) tomonidan amalga oshiriladi hamda hisobi yuritiladi. Respublika Kengashining apparatida ularning umumiy lashtirilgan hisoboti yuritiladi.

Boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti berilgan vakolatlar doirasida ishlab chiqarish, ijtimoiy-iqtisodiy, mehnat va mehnatni muhofaza qilish, huquqiy, maishiy, dam olish, madaniy-ma'rifiy, turizm, jismoniy tarbiya va sport hamda boshqa masalalarda kasaba uyushmasi a'zolarining manfaatlarini ifodalaydi va himoya qiladi.

6.2. Boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti fuqarolarni kasaba uyushmasi a'zolicigiga qabul qiladi va a'zolikdan chiqaradi.

Boshlang'ich kasaba uyushmasi mavjud bo'lmagan tashkilotlarning xodimlarini a'zolikka qabul qilish boshqa xududga (tumanga) tegishli kasaba uyushmasi bo'linmasi tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

6.3. Boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotning organlari:

- umumiy yig'ilish (konferensiya) — oliy organi;
- kasaba uyushmasi qo'mitasi — kollegial rahbar organi;
- taftish komissiyasi (bankda o'z hisobvarag'iga ega bo'lgan boshlang'ich tashkilotlarda) — kollegial nazorat organi.

6.4. Boshlang'ich tashkilotning konferensiyasi:

Boshlang'ich tashkilotning konferensiyasi boshlang'ich tashkilotning oliy organi hisoblanadi. Zaruratga qarab, ammo besh yilda kamida bir marta o'tkaziladi.

Boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti raisi, rais o'rinbosarlari, qo'mita a'zolari agar hisob varaqasi bo'lsa, taftish komissiyasi a'zolarining raislari muqobillik asosida 5 yil muddatga saylaydi;

boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti qo'mitaning (tashkilotchining), taftish komissiyasining faoliyati to'g'risidagi hisobotlarni eshitadi.

6.5. Boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotning umumiy yig'ilishi (konferensiya):

zaruratga qarab, lekin 1 yilda kamida 1 marta o'tkaziladi.

faoliyatiga doir nizomlar va boshqa hujjatlarni qabul qiladi, shuningdek, ularga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritadi.


jamoa shartnomasi loyihasini ma'qullaydi;

xodimlar manfaati nuqtai nazaridan vakolat doirasida qarorlar qabul qiladi;

tegishli yuqori kasaba uyushmasi tashkiloti konferensiyasiga delegatlar, saylab qo'yiladigan organlar tarkibiga vakillarni saylaydi.

6.6. Konferensiya maqomi va vakolati umumiy yig'ilish maqomi va vakolatiga teng.

6.7. 15 va undan kam kasaba uyushmasi a'zolarini birlashtirgan boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotida — Boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotchisi saylanadi.



15 nafar va undan ko'p kasaba uyushmasi a'zolarini birlashtirgan boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotida — Boshlang'ich kasaba uyushmasi qo'mitasi tuziladi.

Boshlang'ich kasaba uyushmasi qo'mitasi yig'ilishi zaruratga qarab, lekin 1 yilda kamida 2 marotaba o'tkaziladi.

15 nafargacha kasaba uyushmasi a'zolarini birlashtirgan boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotida qo'mitaning vakolatlari va vazifalari umumiy yig'ilishga beriladi.

6.8. Boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti qo'mitasi (tashkilotchisi):  
boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti faoliyatiga rahbarlik qiladi;  
yuqori kasaba uyushmasi organlari tomonidan qabul qilingan qarorlar ijrosini ta'minlaydi;

boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti a'zolarining qonuniy talablarini ifodalaydi va himoya qiladi;

korxonalar, tashkilot, muassasani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari, chora-tadbirlarini tayyorlash va amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan ishlarda ishtirok etadi;

jamoalar shartnomasi loyihasini tuzadi, tegishli yuqori kasaba uyushmasi organi ekspertizasidan o'tkazadi va ko'rib chiqish uchun umumiy yig'ilishga kiritadi, ma'qullangandan so'ng tegishli yuqori kasaba uyushmasi organiga ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etadi;

ish beruvchi tomonidan qabul qilinadigan mehnatga oid lokal hujjatlarni kelishib beradi;

jamoalar muzokaralarini olib boradi, jamoalar shartnomasini xodimlar nomidan imzolaydi;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ish beruvchi tomonidan ma'lum xatti-harakatlar amalga oshirilishidan oldin maslahatlashuvlar o'tkazilishini talab qiladi va o'rnatilgan tartibda amalga oshirilishiga rozilik berish yoki bermaslik masalalarini ko'rib chiqadi;

mehnat nizolari (mojarolari)ni hal etishda ishtirok etadi;

jamoalar shartnomasida nazarda tutilgan hollarda ish beruvchining tashabbusiga ko'ra xodim bilan mehnat shartnomasini bekor qilishga rozilik berish yoki bermaslik masalasini hal qiladi;

boshlang'ich tashkilotlar, shuningdek tarqoqlik sharoitida ishlaydigan boshlang'ich tashkilotlarning kasaba uyushmalari ijroiya qo'mitasini saylashlari mumkin;

boshlang'ich tashkilotlar, shuningdek tarqoqlik sharoitida ishlaydigan boshlang'ich tashkilotlar kasaba uyushmasi ijroiya qo'mitalari, jamoalar shartnomasida nazarda tutilgan hollarda ish beruvchining tashabbusiga ko'ra xodim bilan mehnat shartnomasini bekor qilishga rozilik berish yoki bermaslik vakolatini sex kasaba uyushmalariga berishi mumkin;

ish beruvchilarning amaldagi qonunchilikka zid qabul qilgan qaror va buyruqlarini belgilangan tartibda bekor qilinishiga erishadi;

amaldagi qonunchilikka binoan, mehnat qonunchiligi va mehnat muhofazasi qoidalariga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini tashkil etadi, mehnat



huquqi, mehnat va salomatlik muhofazasi masalalari bo'yicha me'yoriy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi, ularga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini olib boradi;

boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti faollarini o'qitishni tashkil etadi, o'zaro tajriba almashish choralari ko'radi;

zarur hollarda qo'mita raisi, uning o'rinbosarini saylaydi va o'z vazifasidan ozod etadi, yuqori kasaba uyushmasi organlari tarkibiga o'z vakillarini saylaydi va chaqirtirib oladi;

boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti byudjetini boshqaradi, kasaba uyushmasi yuqori organi tavsiyalari asosida kasaba uyushmasi qo'mitasining sarf-xarajatlar smetasini tasdiqlaydi, uning bajarilishini nazorat qiladi;

a'zolik badallari mablag'larini belgilangan tartibda yuqori kasaba uyushmasi organlariga o'z vaqtida va to'liq o'tkazilishini ta'minlaydi.

"O'zbekiston tadbirkorlik, biznes va xizmat ko'rsatish sohalari xodimlari kasaba uyushmasi tizimidagi boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti to'g'risida"gi Nizomga muvofiq boshqa vazifalarni ham bajaradi.

6.9. O'z hisob varag'iga ega bo'lgan boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotida taftish komissiyasi saylanadi. Taftish komissiyasi o'z faoliyatini kasaba uyushmasining Qurultoyi tomonidan tasdiqlangan "O'zbekiston tadbirkorlik, biznes va xizmat ko'rsatish sohalari xodimlari kasaba uyushmasi ning taftish komissiyasi to'g'risida"gi Nizomi asosida olib boradi.

6.10. Hisob varag'iga ega bo'lgan boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotida boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti qo'mitasi qarori bilan hisobchi tayinlanadi.

6.11. Boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti raisi (tashkilotchisi) kasaba uyushmasi a'zolari ichidan saylanadi.

Boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti hisobchisi tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy yoki o'rta maxsus diplomi (yoki unga tenglashtirilgan hujjat)ga ega bo'lishi lozim.

6.12. Vakolat muddati (5 yil) tugaganidan so'ng boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti organlari (boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti raisi (tashkilotchisi), qo'mitasi, shu jumladan, qo'mita a'zolari) hunda taftish komissiyasi)ning vakolat muddati tugagan hisoblanadi va qayta saylovlar o'tkazilishi lozim.

Boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti organlarining vakolat muddati tugaganda, boshlang'ich tashkilot hisobchisi, faoliyatini to'xtatish to'g'risidagi tegishli qaror imzolanmagunicha, o'z vazifalarini davom ettirishga haqli.

Qayta saylovlarni o'tkazish favqulotda holatlarda yoki qonunchilikda belgilangan boshqa cheklovlar joriy qilinganda ma'lum bir muddatga kechiktirilishi mumkin.

Saylovlarni kechiktirish kasaba uyushmasi Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasi yoki xududlardagi tegishli kasaba uyushmasi tashkilotlari qarori bilan amalga oshiriladi.

Ustav yoki qonunchilik talablarini buzgan boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti, uning organlari va mas'ul shaxslariga nisbatan kasaba uyushmasi

Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasi, Respublika Kengashi raisi hamda xududlardagi tegishli kasaba uyushmasi organlari tomonidan vakolat doirasida chora ko'riladi.

6.13. Boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti raisi (tashkilotchisi), qo'mita a'zolarining muddatdan oldin saylovi, boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti hisobida turgan kasaba uyushmasi a'zolarining yarmidan ko'pi talabi yoki yuqori kasaba uyushmasi organining qaroriga binoan, o'z tashabbusi bilan, shuningdek, o'z vazifalarini bajara olmay qolgan taqdirda o'tkazilishi mumkin.

Boshlang'ich kasaba uyushmasi qo'mitasi, shu jumladan, taftish komissiyasining a'zolari boshqa ishga o'tib ketganda yoki boshqa sabablarga ko'ra qo'mita yoki taftish komissiyasi tarkibi kamayganda 1 oy muddatda qo'mita yoki taftish komissiyasi tarkibini to'ldirish va yangi a'zolari saylash bo'yicha umumiy yig'ilish o'tkaziladi. Bunga qadar kasaba uyushma qo'mitasi a'zolaridan biri (qo'mita, komissiya qaroriga muvofiq) qo'mita faoliyatini boshqaradi.

Tashkilot yoki muassasada mulkchilik shakli o'zgargan taqdirda, boshlang'ich kasaba uyushmasi qo'mitasi (tashkilotchisi) avval harakatda bo'lgan qo'mita (tashkilotchi)ning huquqiy vorisi hisoblanadi va o'z huquqiy maqomini saqlab qolgan holda faoliyat ko'rsatishni davom ettiradi.

6.14. Boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti raisligi (tashkilotchiligi)ga nomzod boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotining hisobini yuritayotgan xududdagi tegishli kasaba uyushmasi tashkiloti bilan kelishgan holda boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti umumiy yig'ilishida muqobillik asosida saylanadi.

Talab etilganda boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti raisi (tashkilotchisi) va hisobchisining imzolar namunasi, hisobni yuritayotgan xududdagi tegishli kasaba uyushmasi tashkiloti tomonidan tasdiqlanadi.

6.15. Boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti faoliyatini qayta tashkil etish yoki tugatish bo'yicha qaror boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotining umumiy yig'ilishida qabul qilinadi.

Korxonaga tugatilganda, agarda umumiy yig'ilish o'tkazish imkoniyati bo'lmasa, boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti faoliyatini tugatish xududdagi tegishli kasaba uyushmasi tashkiloti yoki yuqori turuvchi kasaba uyushmasi organi qarori bilan amalga oshiriladi.

Kasaba uyushmasi a'zolari boshqa kasaba uyushmasi a'zoriga, amaldagi tartibga binoan o'tib ketganda ushbu boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti xududdagi tegishli kasaba uyushmasi tashkiloti yoki yuqori turuvchi kasaba uyushmasi organi qarori bilan ushbu kasaba uyushmasi xizmatidan chiqariladi.

Boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti tugatilganda uning mol-mulki va mablag'lari barcha majburiyatlar bajarilgandan so'ng, Ustavda belgilangan maqsadlarga sarflash uchun kasaba uyushmasining yuqori organi tasarrufiga o'tkaziladi.

6.16. Boshlang'ich tashkilot boshqa tarmoq kasaba uyushmasi xizmatiga o'tgan hollarda uni tugatish to'g'risida qaror qabul qilinmaydi.

Bunda, kasaba uyushmasi a'zolik badallaridan yuqori kasaba uyushmasi organiga o'tkazib berilishi kerak bo'lgan pul mablag'laridan qarzdorlik so'ndirilishi



va boshqa mulkiy majburiyatlar bajarilishi, shu jumladan kasaba uyushmasiga tegishli bo'lgan barcha mol-mulk mulkdorga qaytarilishi shart.

6.17. Boshlang'ich tashkilot tugatilgan, shuningdek boshqa tarmoq kasaba uyushmasi xizmatiga o'tkazilgan holda tegishli tuman bo'linmasi yoki birlashgan qo'mitaning vakolatli organi boshlang'ich tashkilotni ro'yxatdan chiqarish haqida qaror qabul qilishi lozim.

6.18. Tashkilotda mulkchilik shakli o'zgargan, qayta tashkil etilgan taqdirda, boshlang'ich tashkilot va uning organlari o'z huquqiy maqomini saqlab qolgan holda faoliyat ko'rsatishni davom ettiradi.

## **VII. KASABA UYUSHMASI BIRLASHGAN QO'MITASI (boshlang'ich tashkilotlarda)**

7.1. O'ziga xos kasbiy manfaatlarini to'liq ifodalash maqsadida vazirlik, xo'jalik boshqaruv organlari va ularning tarkibiy bo'linmalarida ishlab chiqarish xususiyatlari, xududiy tarqoqligini hisobga olib hamda boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish va yo'naltirib borish maqsadida kasaba uyushmasi Birlashgan qo'mitasi tuzilishi mumkin.

Kasaba uyushmasi Birlashgan qo'mitasi kasaba uyushmasining bo'linmasi hisoblanadi hamda yuridik shaxs maqomiga ega bo'lishi mumkin.

7.2. Kasaba uyushmasi Birlashgan qo'mitasi kasaba uyushmasi Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasi qarori bilan tuziladi. Bunda kasaba uyushmasi Birlashgan qo'mitasining tuzilishi bo'yicha sohaga tegishli bo'lgan boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotlari tashabbuskor bo'lishi mumkin.

Kasaba uyushmasi Birlashgan qo'mitasi Ustav talablari va qarorlar ijrosini samarali ta'minlash maqsadida haq to'lanadigan apparat xodimlariga ega bo'lishi mumkin. Bunda kasaba uyushmasi Birlashgan qo'mitasi apparatining shtatlar jadvali va oylik maoshlari miqdori kasaba uyushmasi Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasi qarori bilan belgilanadi.

Kasaba uyushmasi Birlashgan qo'mitasi:

Ustavda belgilangan vazifalar, Konferensiya, Qurultoy va Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasi qarorlarini bajarish bo'yicha o'z faoliyatini amalga oshiradi;

fuqarolarni kasaba uyushmasi a'ziligiga qabul qiladi va a'zolikdan chiqaradi; yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan va bo'lmagan, sohaga tegishli boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotlarini hisobga oladi va hisobini yuritadi;

kasaba uyushmasi a'zolarining ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va kasbiy manfaatlarini himoya qilish samaradorligini oshirish choralari ko'radi;

boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotlariga uslubiy-amaliy yordam ko'rsatadi va ularning faoliyatini muvofiqlashtiradi;

boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotlarining harakat birligini mustahkamlaydi.

7.3. Quyidagilar kasaba uyushmasi Birlashgan qo'mitasining organlari hisoblanadi:

Konferensiya — oliy rahbar organi hisoblanadi;



Birlashgan qo'mita — konferensiyalar oralig'ida doimiy harakatdagi kollegial rahbar organi hisoblanadi va 5 (besh) yilda kamida bir marotaba chaqiriladi.

Taftish komissiyasi faoliyatini kollegiallik asosida amalga oshiruvchi nazorat organi.

Kasaba uyushmasi Birlashgan qo'mitasi raisi, rais o'rinbosari, qo'mita hamda uning a'zolarining vakolat muddati 5 yil.

Navbatdan tashqari Konferensiya kasaba uyushmasi Birlashgan qo'mitasi xizmat ko'rsatayotgan kasaba uyushmasi a'zolarining yarmidan ko'pining talabi bilan yoki Birlashgan qo'mitaning tashabbusi bilan yohud kasaba uyushmasi Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasi, shuningdek, tegishliligi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar kasaba uyushmasi tashkiloti Kengashining Ijroiya qo'mitasi qarorlariga muvofiq chaqirilishi mumkin.

Kasaba uyushmasi Birlashgan qo'mitasining organlari vakolati favqulotda holatlarda yoki qonunchilikda belgilangan boshqa cheklovlar joriy qilinganda ma'lum bir muddatga uzaytirilishi mumkin. Vakolat muddatini uzaytirish tegishli yuqori kasaba uyushmasi organi yoki kasaba uyushmasi Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasi qarori bilan amalga oshiriladi.

Ustav yoki qonunchilik talablarini buzgan kasaba uyushmasi Birlashgan qo'mitasi, uning organlari va mas'ul shaxslariga nisbatan kasaba uyushmasi Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasi, xududlardagi tegishli kasaba uyushmasi tashkilotlari tomonidan vakolat doirasida chora ko'riladi.

7.4. Kasaba uyushmasi Birlashgan qo'mitasi faoliyatini qayta tashkil etish yoki tugatish masalasi kasaba uyushmasi Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasi qaroriga yoki birlashgan qo'mita konferensiyasining qaroriga muvofiq amalga oshirilishi mumkin.

Barcha majburiyatlar bajarilganidan so'ng tugatiladigan kasaba uyushmasi Birlashgan qo'mitasining mol-mulki va mablag'lari Ustavda belgilangan maqsadlarga sarflash uchun kasaba uyushmasiga o'tkaziladi.

## VIII. TUMAN (SHAHAR) KASABA UYUSHMASI BO'LINMASI

8.1. Tuman (shahar) kasaba uyushmasi bo'linmasi kasaba uyushmasining xududiy bo'linmasi hisoblanadi. Tuman (shahar) kasaba uyushmasi bo'linmasi yuridik shaxs maqomiga ega bo'lishi yoki bo'lmasligi mumkin.

Tuman (shahar) kasaba uyushmasi bo'linmasi kasaba uyushmasi a'zolarining ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va kasbiy manfaatlarini himoya qilish samaradorligini oshirish, boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotlarining salohiyatini yuksaltirish va harakat birligini mustahkamlash maqsadida tuziladi hamda tegishli ma'muriy-xududiy tuzilmalarda kasaba uyushmasi manfaatlarini ifodalaydi.

8.2. Tuman (shahar) kasaba uyushmasi bo'linmalarini tuzish, birlashtirish, qayta tashkil etish va tugatish, viloyat xududidagi tegishli kasaba uyushmasi tashkiloti taklifiga binoan kasaba uyushmasi Respublika Kengashining Ijroiya qo'mitasi qarori bilan amalga oshiriladi.

8.3. Tuman (shahar) kasaba uyushmasi bo'linmasi:

Ustavda belgilangan vazifalarni, kasaba uyushmasi yuqori organlari qarorlarini bajarish bo'yicha o'z faoliyatini amalga oshiradi;

ijtimoiy hamkorlar o'rtasida tuzilgan Bosh kelishuv hamda tarmoq kelishuvlarining tuman xududida bajarilishini nazorat qiladi;

xududni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda hamda mehnat, ish haqi me'yorlari masalalarini hal etishda qatnashadi;

xo'jalik boshqaruv organlari tizimida xodimlarning huquq va manfaatlariga aloqador masalalarni ko'rib chiqishda ishtirok etadi;

fuqarolarni kasaba uyushmasi a'zoliciga qabul qiladi va a'zolikdan chiqaradi; yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan va bo'lmagan tegishli boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotlarini hisobga oladi va hisobini yuritadi;

tegishli xudud doirasida kasaba uyushmasi manfaatlarini ifodalaydi va amalga oshiradi;

boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotlari a'zolarining ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va kasbiy manfaatlarini himoya qilish samaradorligini oshirish choralarini ko'radi;

kasaba uyushmasi boshlang'ich tashkilotlariga, shuningdek, kasaba uyushmasi Birlashgan qo'mitasiga uslubiy-amaliy yordam ko'rsatadi va ularning faoliyatini muvofiqlashtiradi;

xududda kasaba uyushmasi tashkilotlarining harakat birligini mustahkamlaydi.

Tuman bo'linmasini moliyalashtirish tartibi, shtatlar jadvali hamda xodimlarning ish haqi miqdorlari Federatsiyaning vakolatli organi tasdiqlagan me'yoriy hujjatlar asosida Ijroiya qo'mita tomonidan belgilanadi.

8.4. Quyidagilar tuman (shahar) kasaba uyushmasi tashkilotining rahbar organlari hisoblanadi:

- Konferensiya - oliy rahbar organi;
- tuman Kengashi (tuman Birlashgan qo'mitasi) — konferensiyalar oralig'ida doimiy harakatdagi kollegial rahbar organi;
- Tuman Kengashining Ijroiya qo'mitasi (tuman Birlashgan qo'mitasining rayosati) — konferensiyalar oralig'ida doimiy harakatdagi kollegial ijroiya organi;
- Tuman bo'linmasining taftish komissiyasi — faoliyatini kollegiallik asosida amalga oshiruvchi nazorat organi.

Tuman (shahar) kasaba uyushmasi bo'linmasi raisi, rais o'rinbosari, Kengash va Ijroiya qo'mitasi a'zolarining vakolat muddati 5 yil.

Navbatdan tashqari Konferensiya tegishli tuman (shahar)dagi kasaba uyushmasi a'zolarining kamida 3/1 qismining talabi bilan, Kengashning tashabbusi yohud kasaba uyushmasi Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasi yoki tegishliligi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar kasaba uyushmasi Birlashgan qo'mitasining Ijroiya qo'mitasi qaroriga muvofiq chaqirilishi mumkin.

8.5. Tuman (shahar) kasaba uyushmasi bo'linmasi organlari vakolati favqulodda holatlarda yoki qonunchilikda belgilangan boshqa cheklovlar joriy qilinganda ma'lum bir muddatga uzaytirilishi mumkin.



Ustav yoki qonunchilik talablarini buzgan tuman (shahar) kasaba uyushmasi bo'linmasi, uning organlari va mas'ul shaxslariga nisbatan kasaba uyushmasi Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasi yoki Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar kasaba uyushmasi tashkilotlari tomonidan vakolat doirasida chora ko'riladi.

8.6. Tuman (shahar) kasaba uyushmasi bo'linmasi tugatilgan taqdirda, barcha majburiyatlari bajarilganidan so'ng uning mol-mulki va mablag'lari Ustavda belgilangan maqsadlarga sarflash uchun kasaba uyushmasi Respublika Kengashiga o'tkaziladi.

8.7. Tuman (shahar) kasaba uyushmasi bo'linmasining huquq va majburiyatlari, ularning rahbar organlariga doir normalar, ularni tashkil etish va tugatish tartibi kasaba uyushmasi Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadigan tegishli Nizom bilan belgilanadi.

8.8. Tuman bo'linmasining konferensiyasi tegishli tuman Kengashi (tuman Birlashgan qo'mitasi) tomonidan besh yilda kamida bir marta chaqiriladi.

Konferensiyani o'tkazish sanasi va kun tartibi haqida kamida bir oy oldin ma'lum qilinadi. Konferensiyaga vakillik me'yori, ularni saylash tartibi tegishli tuman Kengashi (tuman Birlashgan qo'mitasi) tomonidan belgilanadi.

Tuman Kengashi (tuman Birlashgan qo'mitasi) konferensiyani o'tkazishning aniq sanasini belgilash vakolatini tegishlicha tuman Kengashining Ijroiya qo'mitasiga (tuman Birlashgan qo'mitasi rayosatiga) berishi mumkin.

Hisobot-saylov konferensiyasi qaroriga muvofiq delegatlarning vakolatlari keyingi hisobot-saylov konferensiyasigacha saqlab qolinishi mumkin (navbatdan tashqari konferensiya bundan mustasno).

8.9. Tuman Kengashi (tuman Birlashgan qo'mitasi) majlislari zaruratga qarab, lekin bir yilda kamida bir o'tkaziladi.

Tuman Kengashi (tuman Birlashgan qo'mitasi) majlislari tegishli tuman Kengashining Ijroiya qo'mitasi (tuman Birlashgan qo'mitasining rayosati) tomonidan chaqiriladi.

8.10. Tuman Kengashi (tuman Birlashgan qo'mitasi) ning vakolatlari:

- Ustavda belgilangan vazifalarni amalga oshirish, tuman bo'linmasi (tuman Birlashgan qo'mitasi) va yuqori kasaba uyushma tashkilotlarining konferensiyalari, Qurultoylari qarorlarini bajarish bo'yicha ish olib borish;

- Tuman Kengashi (tuman Birlashgan qo'mitasi) a'zolari orasidan Ijroiya qo'mita (Rayosat)ni saylash, uning son tarkibini belgilash, zarur hollarda uning tarkibiga o'zgartishlar kiritish;

- Tuman Kengashi Ijroiya qo'mitasi (tuman Birlashgan qo'mitasi rayosati)ning faoliyati to'g'risidagi hisobotlarini eshitish va natijalari bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilish;

- konferensiyalar oralig'ida Tuman Kengashi (tuman Birlashgan qo'mitasi) tarkibidan a'zolari chiqarish, saylash, shuningdek uning son jihatdan tarkibini o'zgartirish;

- konferensiyalar oralig'ida tuman bo'linmasi (Birlashgan qo'mita) raisining o'rinbosarini saylash va lavozimidan ozod qilish (konferensiyalar oralig'ida tuman bo'linmasi (tuman Birlashgan qo'mitasi) raisi o'rinbosarini saylash masalasi

keyinchalik Tuman Kengashi, (tuman Birlashgan qo'mitasi) majlisida tasdiqlash sharti bilan tegishlicha tuman Kengashi Ijroiya qo'mitasi (tuman Birlashgan qo'mitasi rayosati) tomonidan hal qilinishi mumkin);

- zarurat tug'ilganda (jumladan, rais boshqa ishga o'tgani, salomatligi yomonlashgani, iste'foga chiqqani tufayli o'z vazifalarini bajara olmay qolganda) Konferensiyalar oralig'ida tuman bo'linmasi (tuman Birlashgan qo'mitasi) raisini lavozimidan ozod qilish va yangi raisni saylash;

- yuqori kasaba uyushmasi tashkiloti organlari tarkibiga saylangan vakillarini chaqirib olish va yangi vakilni yo'llash to'g'risida qaror qabul qilish;

- Federatsiya va tarmoq kasaba uyushmasi tizimida amalda bo'lgan me'yoriy hujjatlarga zid bo'lmagan o'z me'yoriy hujjatlarni qabul qilish, shuningdek, ularga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish;

— konferensiya vakolat bergan boshqa vazifalarni bajarish.

8.11. Tuman Kengashining Ijroiya qo'mitasi (tuman Birlashgan qo'mitasining rayosati):

- o'z ishini amaldagi qonun hujjatlari va ushbu Ustav, yuqori kasaba uyushmasi organlarining qarorlari asosida, kasaba uyushmasi tashkilotlari oldida turgan maqsad va vazifalarni hisobga olgan holda tashkil qiladi;

- xududdagi tegishli ish beruvchilar bilan jamoa muzokaralarini olib boradi, jamoa (xududiy tarmoq) kelishuvlarini tuzadi, ularning bajarilishida ishtirok etadi, ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini olib boradi;

- xududda soha xodimlari uchun munosib sharoitlar yaratilishiga qaratilgan ijtimoiy dasturlarni shakllantirishda, xodimlarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

- ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklarini tekshirishda, tibbiy-mehnat ekspert komissiyasi majlislarida ishtirok etadi;

- ish beruvchilar tomonidan xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlariga taalluqli bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar, shuningdek jamoa shartnomalari va kelishuvlari talablariga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini ish o'rinlarida amalga oshiradi;

- belgilangan tartibda mehnat nizolari bo'yicha komissiyalarning ishida qatnashadi;

- boshlang'ich tashkilotlarni kasaba uyushmasi xizmatiga qabul qilish va chiqarish to'g'risida qarorlar qabul qiladi, faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yishda boshlang'ich tashkilotlarga amaliy va uslubiy yordam ko'rsatadi;

- kasaba uyushma xizmatidagi boshlang'ich tashkilotlarning faoliyatini o'rganadi, zarur hollarda o'rganish yakunlarini o'z majlislarida ko'rib chiqib, tegishli qarorlar qabul qiladi;

- faollar o'quvlarini tashkil qiladi, kasaba uyushmalari faoliyatining yo'nalishlari bo'yicha seminarlar, davra suhbatlari o'tkazadi;

- a'zolik badallari tushumi to'liqligini ta'minlash choralari ko'radi, o'rnatilgan tartibda Tuman Kengashi (tuman Birlashgan qo'mitasi)ning sarf-xarajatlar smetasini (konsolidatsiyalashgan sarf-xarajatlar smetasini) tasdiqlaydi va ijrosini ta'minlaydi;